

*Haqberdiyeva Fariza Akmaljonovna*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 3 bosqich talabasi*

*farizahaqberdiyeva@gmail.com*

**Annotation.** Ushbu maqolada ta'lif va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, bola tarbiyasi davlat miqyosidagi siyosiy muammo ekanligi, bolani tarbiyalash, unga ilm berish faqatgina ustozgagina xos emas, balki ota-onaga, butun jamyatga tegishli ekani, bola tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xatoliklar haqida fikr yuritilgan. **Kalit so'zlar:** o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, bola, ilm, talim-tarbiya, maktab, odob-axloq, barkamol rivojlangan.

## РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ

**Annotation.** В данной статье раскрывается взаимообусловленность образования и воспитания, то, что воспитание ребёнка является политическим вопросом на государственном уровне, что воспитание ребёнка и передача ему знаний принадлежит не только учителю, а принадлежит родителям и всему обществу, допускается в воспитании детей, ошибки обсуждаются.

**Ключевые слова:** учитель, ученик, родитель, ребенок, наука, воспитание, школа, нравы, гармонично развитый.

## ROLE OF PARENTS IN CHILD EDUCATION

**Abstract.** In this article, the interdependence of education and upbringing, the fact that child upbringing is a political issue at the state level, that raising a child and imparting knowledge to him is not unique to the teacher, but belongs to parents and the whole society, is allowed in child upbringing. errors are discussed.

**Key words:** teacher, student, parent, child, science, education, school, morals, harmoniously developed.

## KIRISH

Ta'lif - bilim berish, malaka va ko`nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lif jarayonida ma'lumotlar olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lif va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog`liqdir. Inson ilmli bo`lishni istasa u eng avvalo tarbiyalanishi kerak. tarbiyali inson mukammal ilm sohibi bo`la oladi. Har bir mamlakatning bugungi va ertangi kuni o`sha yurtdagi maktablarning holatiga, ta`lim-tarbiyaning sifatiga bog`liq. O'sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday inson bo`lishiga qarab, yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham: "Kelajak yoshlarning qo'lidadir" - deyishadi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani

“kichik vatan” deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo`ladi. Qaysidir ma’noda ota-onan farzandining birinchi o`qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o`zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog`i kerak. Bolaga o`zi yaxshi fazilatlar bilan o`rnak bo`la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go`zal xulqli, yuksak ilmli, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo`ladi. “Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo`lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o’ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o’tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo`lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi” . Aynan shu vaqt oralig`i ota-onadan katta mas`uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtida ota-onan o`z farzandiga ko`proq e`tibor berishi, uning tarbiyasini bilan jiddiy shug`illanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to`g`ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

### TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Yoshlarga ta`lim-tarbiya berish har bir ota-onaning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Bu burchga mas`uliyat bilan yondoshishi kerak. “Kelajagi kafolatlanishini istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo`lgan farzandlarini ulg`aytirish uchun sarflashlari lozim. Boshqa yo`nalishlar uchun sarflangan mehnatlar bekor ketishi mumkin, ammo farzand kamoli uchun sarflangan mehnatlar bitmas-tuganmas xazinaga aylanadi” . Farzand kamoli uchun sarflangan mablag` va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo`ladi desak hech mubolig`a bo`lmaydi.

Agar ota-onan o`z farzandiga, uning tarbiyasiga e`tibor bermasa bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O`sha vaqtida esa muammolarni hal qilishga kech bo`lishi mumkin. Zero, bizni chaqqan ilonning ortidan chopsak, ilon zahrining butun tanamizga yoyilishiga sababchi bo`lamiz. Bu holatning oldini olish uchun ilonning ortididan yugirish emas, uning oldini olish kerak. Shunday ekan bolaga yoshligidan befarq bo`lmay, uning tarbiyasiga, ilm olishiga e`tibor berishi kerak.

Har bir ota-onan tarbiya berar ekan, eng avvalo, salomlashishni, kattalarni hurmat qilishni o`rgatishi kerak. Chunki bejizga dono xalqimiz: “Gapning boshi - kalom, odob boshi - salom.” - deb bejiz aytmagan.

Ota-bobolarimiz azaldan yosh avlodni chiroyli xulqli, odobli, ilmli, qobil farzand bo`lib ulg`ayishiga katta ahamiyat berishgan. Agar bola noqobil bo`lib ulg`aysa, undan faqat ota onagina emas, balki el - yurt, jamiyat, davlat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga ega. Murg`ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi.

“Tarbiyani tug`ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim” . Bolani tarbiyalash haqida xalqimiz orasida ko`plab afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ertaklar yurishi ham bejiz emas.

Donishmandlar bolani ona qornidan boshlab tarbiya qilish kerak deyishadi. Qachonki, bola tarbiyalı bo`lsa u mukammal ilm sohibi, komil inson bo`la oladi.

### TADQIQOT NATIJASI

Shak-shubhasiz, ota-onा, oilа, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmli, tarbiyalı qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. “Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-onা” - deganlari ham bejiz emas .

Bolani tarbiyalashda agar mакtab yoshida bo`lsa ota-onा va maktab hatto mahalla ham doimo yaxshi yo`lga qo`yilar ekan, o`sha oilа, o`sha mahalla gullab-yashnaydi. Ammo hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga e`tibor bermayotgan kishilar ham ko`p uchraydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o`z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o,,rni kamayib borayotganligi, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar” [5]. Haqiqatdan ham, kundan kunga bunday insonlar soni ortib bormoqda. Yana shuni alohida ta`kidlash kerakki, hozirgi yoshlar ham kattalar tanbeh berganda “sizga nima?”, “bu mening ishim, ishimga aralashmang”, “kimsiz o`zi menga aql menga aql o`rgatadigan?” zaylidagi gaplarni aytishyapti. Bu ham tarbiyasizlikning bir namunasidir. Aynan shu inson oilada noto`g`ri tarbiya topgan yoki tarbiyasining qaysidir joyida xatolik ketgan. Hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o`z umri va salohiyatini bag`ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rın berilgan.

### MUHOKAMA

Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlar barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so`z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u blig”, Kaykovusning “Qobusnomá”, Husan Koshifiyning “Ahloqi Muhsiniy”, Jaloliddin Doniyning “Ahloqi Doniy”, Abu Lays Samarqandiyning “Bo'stonul-orifin” asarida tarbiya va tarbiyalanishning ma`nosi, “Tanbehul g'ofiliyn” asarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish va yana ko`plab mutafakkirlarimiz o`z asarlarida shunga o`xshash fikrlarni ilgari surgan. Bola birinchi tarbiyani oilasidan oladi. Shuning uchun bolaning ta`lim-tarbiya olishiga oilaning o`rni kattadir. Bolani tarbiyalashda yo`l qo`yiladigan xatoliklar haqida ko`rib chiqaylik:

1. Bolani doimiy ravishda tanqid qilish uni o`ziga bo`lgan ishonchini yo`qolishiga, mustaqil fikrlay olmasligiga olib keladi. Mustaqil fikriga ega bo`lmagan inson hayotda o`z o`rniga ham ega bo`lmaydi.

2. Ko`pchilik insonlar ular bilan suhbatlashadigan insonni emas, uni tinglaydigan insonni qidirishadi. Bola ham o`zini tinglaydigan insonni qidiradi. Agar bolani uyda fikri umuman tinglanmasa, qo`llab-quvvatlanmasa undagi ishtiyoq

so`nadi, odamlarning orasida erkin bo`lolmaydi, o`z fikrini aniq, ravon bayon etolmaydi.

3. Bolani hamma aytganini qilaverish ham uning erkatoy, tantiq qisqa qilib aytganda tarbiyasining buzilishiga olib keladi.

4. “Qush uyasida ko`rganini qiladi.” Shunday ekan bolaga to`g`ri tarbiya berishni istagan inson, avvalo, o`zini tarbiya qilishi, o`zi bolaga o`rnak bo`lmog`i kerak. Abu Ali Ibn Sino ham: “Kimga qanday pand nasihat qilsang, unga avvalo o`zing amal qil.” - deb to`xtalib o`tgan. Bolaga nimadirni o`rgatmoqchi bo`lsangiz faqat gapda emas, harakatlar bilan ham buni ifoda eting. Har bir qilgan ishingiz bolaga o`rnak bo`lmog`i kerak.

5. Keragidan ortiq e`tibor ham bolani tarbiyasiga yomon ta`sir qiladi. Bolaga o`zi qila oladigan ishlarini qilishga imkoniyat yaratib berish kerak. Agar u qila oladigan har bir ishni qilib bersa bola ota-onaning ko`magiga o`rganib qoladi. Bu kelajakda ham ota-onsa ko`magisiz hech bir ish qila olmaydigan inson bo`lishiga olib keladi.

6. “Urib jazolashdan tiyilish kerak. Bu bolani kelajakka yana xato qilmaslikka o`rgatmaydi” [6].

7. Bolani juda erkin qo`yib qo`yish, uning taltayishiga olib keladi.

8. Bolaga o`ta muloyimlik qilish ham uning tarbiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Biz hozir bola tarbiyasidagi xatoliklardan ba`zilarini ko`rib chikdik. Ming afsuski, bolani tarbiyalashda mana shunday xatoliklar ko`plab uchrab turadi. Bu bolani noqobil bo`lib tarbiyalanishiga olib keldi.

Bolaning tarbiyasi bilim olishiga ham katta ta`sir qiladi. Ota-onsa o`z bolasini ilmli, komil inson bo`lishini istasa bolasiga to`g`ri tarbiya beradi, o`qishidan xabardor bo`lib turadi, o`qituvchi bilan doim aloqada bo`ladi. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutshi mumkin. O`z farzandini kamolotini ko`rishni istagan ota-onsa hamma mas`uliyatni o`qituvchiga yuklamaydi, balki o`qituvchi bilan doimo birga faoliyat olib boradi. Ota-onsa farzandiga ustozni hurmat qilishni, ustoz ikkinchi ona ekanini, mакtab ikkinchi uy ekanini uqtirishi kerak. Shundagina bola ustozini hurmat qiladi, uning barcha o`rgatgan narsalarini xotirasida muhrlaydi. Bu esa shu o`rgangan narsalarini keyinchalik hayotida qo`lay olishiga yordam beradi.

“O`qituvchilar yomg`ir tomchisi bilan taqqoslanadi. Yomg`ir har bir donning hayotiyligini uyg`otar ekan, o`qituvchining asosiy maqsadi har bir o`quvchining ijodiy imkoniyatlarini ochib berishdir” [7]. Tomchi suvlar orqali suvgaga tashna yerga tushadi va u yerdan navqiron, yosh nihollar unib chiqadi. Ya`ni ilmga tashna o`quvchilarni kelajagi bor inson sifatida shakllantiradi. O`qituvchi bolalarga ta`lim-tarbiya bilan birga hayotda yashashni o`rgatadi. Hayotning oq-u qorasini ustoz tanitadi desak ham mubolog`a bo`lmaydi.

Maktabga birinchi kelgan bolani sayqallanmagan tosh desak, o`qituvchini esa sangtarosh deymiz. O`qituvchi ya`ni sangtarosh sayqallanmagan toshdan go`zal bir

ko`hinur yaratadi. Bu jarayon oson bo`lmaydi, albatta. Bunda ota-onam ham o`qituvchi bilan hamkorlikda ishlashi kerak. Ikkala tomon ham bunga ancha mehnat sarflaydi. Shuncha mehnatning natijasi, albatta go`zal bo`ladi. Faqatgina o`qituvchi harakat qilib, ota-onam yoki o`quvchi harakat qilmasa, bunda ham natija bo`lmaydi. Ota-onalarning o`qituvchilar bilan uchrashib turishi kerak. Chunki ular o`z farzandlari to`g`risida ko`proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan va bolasining tarbiyasiga befarq bo`lmagan har bir ota-onam oila bilan maktab o`rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

“Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-onam maktab bilan yaqin aloqa o`rnatishi, farzandining darslarini o`zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo`lib turishi, tarbiya masalalarida o`qituvchi bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so`ng nima bilan mashg`ulligi haqida o`qituvchini xabardor qilib turishi kerak”

Shuning uchun hamma birdek harakat qilish kerak. “Ilm ko`p yog`gan yomg`irga o`xshaydi”. Ana shu yomg`ir orqali o`qituvchi o`quvchilarni sug`oradi. Bu yomg`ir suvlardan qonib-qonib ichish o`quvchining o`ziga bog`liq, ya`na ota-onasiga ham. Ota-onam bu suvlardan ichishi uchun farzandiga yordam bermog`i kerak. Shunday ekan bolani komil inson bo`lishi uchun o`qituvchi, ota-onam va bolaning o`zi ham harakat qilmog`i kerak. Hamkorlikda ish qilinsa, bolani kamolotga yetkazish yo`lida o`sish bo`ladi. Shu sababli bolasini kamolotini istagan ota-onam ustoz bilan hamkorlikda ish olib boradi va bolasini o`qishini nazorat qiladi. Uning tarbiyasiga, ilm olishiga e`tibor beradi.

## XULOSA

Xullas, bolaning kamol topishi uchun o`qituvchi ham, ota-onam ham xatto o`sha bolaning o`zi ham harakat qilishi kerak ekan. Shundagina o`sish bo`ladi, natija bo`ladi. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o`rni beqiyosdir. Ota-onam o`z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e`tiborli bo`lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog`i uchun tarbiya samarali bo`lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-onam ilmli tarbiyalni bo`lishi kerak. Farzandlarimiz ilmli va tarbiyalni bo`lishi uchun o`zimizni ma`naviy rivojlantirishimiz va atrofdagi bolalar tarbiyasiga ham befarq bo`lmaslik zarur.

## ADABIYOTLAR

1. “Al-jome` as-sahih” asari. Ilm o`rganmoq va ilm o`rgatmoqning fazilati to`g`risidagi hadis.
2. Karamatova D.S. Sinfdan tashqari mashg`ulotlar orqali o`quvchilarni ijodiy faoliyatga yo`naltirish metodlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN: 2181-2484, Volume 1. ISSUE 2 2021. 4-9 b.
3. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo`lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // “Образование

и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.950-955.

4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida// “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.956-962.
5. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga,jamiyatga va o`z-o`ziga nisbatan munosabatlarni tizimli rivojlantirish / International Scientific and Practical conference “Topical Issues of Science” Xalqaro konferensiyasi. - USA: NEW York university.
6. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o`z-o`ziga nisbatan mas`uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish // “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
7. Maktab oiladan boshlanadi. – Т.: Yangi asr avlodni. 2013.
8. Salaeva M.S. O`tmish mutafakkirlarimiz ota-onalar va farzandlar munosabatlari xususida // Mahrifat yog`dusi. № 3. 2000.–B. 76-80.
9. Salaeva M.S. O`zbek oilalarida bolalarning o`z oilasidagi hayotga munosabatlarining etno psixologik xususiyatlari. /«O`zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy psixologik muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani mahruzalari to`plami. –TDIU. 24-25 may 2000 yil. –B. 81-82.
10. Salaeva M.S. Bola mahnaviyatini shakllantirishda o`zaro munosabatlarning tahsiri / «Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish sharoitida yosh avlodni mahnaviy tarbiyalash shakl va usullari» Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. –Т.: O`zPFITI. 2001. –B. 277-280